



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



YANGI O'ZBEKISTONDA BARQAROR SUV BOSHQARUVI VA EKOLOGIK-HUQUQIY ASOSLARI

Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich

Qo'qon davlat universiteti Milliy g'oya va huquq kafedrası o'qituvchisi

Lazatxan Ruzillaevna Asilbekova

Markaziy Osiyo innovatsiyalar universiteti Huquq kafedrası o'qituvchisi,
Chimkent, Qozog'iston

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida suv resurslarini boshqarishning huquqiy-mexanizmlari, suv ho'jaligi sohasida islohotlar va ekologik-huquqiy normalarning takomillashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqot iqlim o'zgarishi va suv taqchilligi sharoitida suvdan oqilona foydalanishning qonuniy asoslarini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Suv huquqi, Markaziy Osiyo, barqaror boshqaruv, Yangi O'zbekiston, ekologik qonunchilik, transchegaraviy daryolar, suv tejankor texnologiyalar.

SUSTAINABLE WATER MANAGEMENT AND ECOLOGICAL- LEGAL BASIS IN NEW UZBEKISTAN

Khudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich

Teacher, Department of National Idea and Law Kokand State University

Lazatkhan Ruzillaevna Asilbekova

Teacher, Department of Law Central Asian Innovation University
Shymkent, Kazakhstan

Annotation: This article analyzes the legal mechanisms of water resources management, reforms in the water sector and the improvement of environmental and legal norms in the conditions of New Uzbekistan. The study is devoted to the issues of strengthening the legal foundations of rational water use in the conditions of climate change and water scarcity.

Keywords: Water law, Central Asia, sustainable management, New Uzbekistan, environmental legislation, transboundary rivers, water-saving technologies.

УСТОЙЧИВОЕ УПРАВЛЕНИЕ ВОДНЫМИ РЕСУРСАМИ И ЭКОЛОГИЧЕСКО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Худойберганов Шарифжон Шокиралиевич

Преподаватель кафедры национальной идеи и права
Кокандский государственный университет

Лазатхан Рузиллаевна Асилбекова

Преподаватель кафедры права Центральноазиатский инновационный
университет Шымкент, Казахстан

Аннотация: В данной статье анализируются правовые механизмы управления водными ресурсами, реформы в водном секторе и совершенствование эколого-правовых норм в условиях Нового Узбекистана. Исследование посвящено вопросам укрепления правовых основ рационального водопользования в условиях изменения климата и вододефицита.

Ключевые слова: водное право, Центральная Азия, устойчивое управление, Новый Узбекистан, природоохранное законодательство, трансграничные реки, водосберегающие технологии.

KIRISH

XXI asrning birinchi choragi insoniyat tamaddudi uchun "gidro-krizis" yani, suv taqchilligi davri sifatida tarixga kirmoqda. Umumbashariy iqlim o'zgarishi natijasida suv resurslarini hajmining kamayishi nafaqat ekologik muvozanatni, balki davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va milliy xavfsizligini ham xavf ostiga qo'yimoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo kabi quruq va yarim quruq iqlim zonalarida joylashgan hududlar uchun suv masalasi "hayot-mamot" darajasidagi strategik ahamiyatga ega. Shularni inobatga olib, so'nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish tubdan isloh qilinmoqda. Asosiy masala — suvdan oqilona va samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Binobarin, Prezidentimizning saylovoldi dasturida ham suv resurslarini tejashga alohida e'tibor berilib, 2030 yilga qadar respublikamizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq etish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etgan fermer va dehqonlar uchun rag'batlantirish mexanizmlarini yanada ko'paytirish choralari ko'rilishi belgilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Suv resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish — bu shunchaki vazifa emas, balki kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimizdir". Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ekologik huquqlarning alohida bob sifatida mustahkamlanishi, davlatning barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiqligini huquqiy jihatdan tasdiqladi. Biroq, huquqiy normalarning deklarativ xarakterdan real amaliyotga o'tishi uchun barqaror boshqaruv modellarini ilmiy asoslash talab etiladi.

Global miqyosda suv boshqaruvi bo'yicha fundamental tadqiqotlar o'tkazgan olim Malin Falkenmark o'zining "Suv tanqisligi indiksi" nazariyasida ta'kidlashicha, "aholi jon boshiga yillik suv miqdori 1000 m³ dan kamayishi iqtisodiy taraqqiyotni to'xtatib qo'yuvchi jiddiy to'siqdir". O'zbekiston sharoitida bu ko'rsatkich iqlimiy tebranishlar tufayli kritik nuqtaga yaqinlashmoqda. Shuningdek, suv resurslarini boshqarishda "Ekologik-huquqiy preventivlik" tamoyili muhim o'rin tutadi. Professor S. Mirzaevning fikricha, "Suvdan foydalanish huquqi faqatgina iste'mol bilan cheklanib qolmay, balki manbalarning qayta tiklanish qobiliyatini saqlash majburiyatini ham yuklaydi" Bu esa Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Suv xo'jaligini isloh qilish" konsepsiyasining markaziy g'oyasidir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston suv xo'jaligida tub islohotlar davrini boshdan kechirmoqda. Jumladan: Suv resurslarini boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan bozor iqtisodiyoti va raqamli texnologiyalar (Smart Water) bosqichiga

o'tilishi. Suv obyektlarining huquqiy maqomini xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish. Transchegaraviy daryolar (Amudaryo va Sirdaryo) bo'yicha mintaqaviy "suv diplomatiyasi"ning yangi modelini yaratish.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Yangi O'zbekistondagi barqaror suv boshqaruvining huquqiy asoslarini tahlil qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qonunchilik takliflarini ishlab chiqishdir. Bizning farazimizga ko'ra (Hypothesis), suvni "iqtisodiy tovar" va "tabiiy ne'mat" sifatida huquqiy balansini topmasdan turib, resurslar barqarorligiga erishib bo'lmaydi.

Barqaror suv boshqaruvi va uning huquqiy tartibga solinishi global ilmiy hamjamiyatning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu bo'limda xalqaro miqyosda tan olingan "suv etikasi" va "virtual suv" nazariyalari hamda o'zbek olimlarining mintaqaviy suv muammolariga oid yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Shvetsiyalik gidrolog M. Falkenmark suv tanqisligini aholi soni va mavjud resurslar nisbati orqali baholash modelini yaratdi. Uning fikricha, suv tanqisligi nafaqat tabiiy omil, balki noto'g'ri ijtimoiy boshqaruv natijasidir.

London universiteti professori J.A. Allan "Virtual suv" (Virtual Water) tushunchasini fanga kiritib, suv tanqisligini faqat jismoniy resurs bilan emas, balki xalqaro savdo (suv talab qiladigan mahsulotlarni import qilish) orqali hal qilish mumkinligini isbotladi. Bu yondashuv bugungi kunda Yangi O'zbekistonning eksport-import siyosatida suv sig'imi yuqori bo'lgan ekinlardan voz kechish strategiyasi bilan hamohangdir.

Mintaqaviy xususiyatlar mamlakatimiz olimlari suv boshqaruvini asosan gidrotexnik xavfsizlik va transchegaraviy huquq prizmasidan tadqiq etadilar.

Professor S. Mirzaev o'z tadqiqotlarida suvni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlari, xususan, suvdan foydalanishda javobgarlikning muqarrarligi masalasini birinchilardan bo'lib ko'targan. Uning "Suv xo'jaligi huquqi" asari Yangi O'zbekistondagi suv qonunchiligini takomillashtirishda bazaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodchi olim A. Sherov suv resurslarini boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish, xususan, suv iste'molchilarining xarajatlarini qoplash va investitsion jozibadorlikni oshirish masalalarini tahlil qilgan. Uning qarashlari hozirgi kunda suv xo'jaligida Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) tamoyillarining joriy etilishiga ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

G'arb va Markaziy Osiyo Maktablari quyidagi jadvalda xorijiy va mahalliy olimlarning barqaror suv boshqaruviga oid qarashlari qiyoslangan:

Tadqiqot yo'nalishi	Xorijiy olimlar (Falkenmark, Allan, Gleick)	O'zbek olimlari (Mirzaev, Sherov, Dukhovniy)
Boshqaruv asosi	Suvni "global umumiy ne'mat" (Global Commons) deb bilish.	Suvni "strategik milliy resurs" va "hayot asosi" deb bilish.
Muammo yechimi	Bozor narxлари, texnologik innovatsiya va virtual suv savdosi.	Integratsiyalashgan boshqaruv (IWRM), davlat nazorati va transchegaraviy diplomatiya.
Huquqiy urg'u	Inson huquqlari va ekologik etika ustuvorligi.	Me'yoriy tartibga solish va gidrotexnik xavfsizlik kafolatlari.

Ko'rinib turibdiki, G'arb ilmiy maktabi ko'proq suvning iqtisodiy qiymati va individual huquqlarga e'tibor qaratsa, mahalliy ilmiy maktab suvni jamoaviy boshqarish va transchegaraviy hamkorlikning huquqiy asoslariga urg'u beradi.

Yangi O'zbekistonda suv boshqaruvining huquqiy asoslari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Asosiy natijalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Konstitutsiyaviy islohotlar Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida: "Davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha choralar ko'radi" deb belgilab qo'yildi. Bu suv resurslarini muhofaza qilishni konstitutsiyaviy majburiyat darajasiga ko'tardi.

2. Strategik huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi" barqaror boshqaruvning "yo'l xaritasi"ga aylandi.

Suv boshqaruvidagi transformatsiya ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2020 -yilgacha	2024 -yilgacha
Sug'orishda suv tejash texnologiyalari	2-3%	15-18%
Suv xo'jaligi raqamlashtirilishi	Minimal	160% dan yuqori
Huquqiy tartibga solish	Ma'muriy-buyruqbozlik	Bozor tamoyillari (DXSH)

O'zbekistonning "Suv kodeksi"ni qabul qilish va unda suvning ekologik oqimi (sanitar oqim) miqdorini qonuniy mustahkamlash lozim. Suv tejovchi fermerlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish va suv isrofi uchun javobgarlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan suv-energetika konsorsiumini tuzishning huquqiy mexanizmlarini tezlashtirish zarur.

Zamonaviy sharoitda barqaror suv boshqaruvi tizimini shakllantirish shunchaki texnik yoki muhandislik yechimlari bilan cheklanib qoladigan masala emas. Bu jarayon, eng avvalo, sivilizatsiyamizning ma'naviy yetuklik darajasini va kelajak avlod oldidagi mas'uliyatini belgilovchi bosh mezondir. Shu munosabat bilan, quyidagi mantiqiy xulosalarga kelish mumkin.

Ekologik-etika kompas sifatida: Suv resurslarini taqsimlash, asrash va ulardan foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishda ekologik-etika tamoyillari asosiy yo'naltiruvchi "kompas" vazifasini o'tashi shart. Huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar ma'naviy va etik me'yorlar bilan mustahkamlanmas ekan, global suv inqirozini bartaraf etib bo'lmaydi.

Yangi akademik yo'nalish zarurati: Jamiyatda suvga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish va ushbu sohaga mas'ul kadrlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish maqsadida, oliy ta'lim tizimiga mutlaqo yangi yo'nalish — "Suv etikasi" (Water Ethics) fanini mustaqil muloqot va tadqiqot obyekti sifatida joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Suv inqirozi — bu resursning kamayishi emas, balki unga bo'lgan munosabat va boshqaruv madaniyatining inqirozidir. Shu bois, kelajakda "Suv etikasi" fanining oliy ta'limda o'qitilishi ekologik barqarorlikni ta'minlashning eng samarali ma'naviy-huquqiy poydevoriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2023.
2. PF-6024-son Farmon. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi.
3. Mirzaev, S. (2018). Suv xo'jaligi huquqi va ekologik barqarorlik. Toshkent: Adolat.
4. Sherov, A. Suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va bozor mexanizmlari. Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2021.
5. Gleick, P. H. (2021). The World's Water: The Report on Freshwater Resources. Island Press.
6. Ziganishina, D. (2022). International Water Law in Central Asia. Routledge.